



FITRAT'S SOCIO-PHILOSOPHICAL VIEWS ON MARRIAGE

Ozodakhon Kuvonbekovna Chuboyeva

Lecturer, Namangan State University

E-mail: o.chuboeva@gmail.com

Namangan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Article, scholar, Fitrat, marriage philosophy, order, condition, belief, necessity, family, management, work, analysis, problem, comparison, methodology, phenomenon, quality, attention, conclusion, civilization.

Received: 01.11.25

Accepted: 02.11.25

Published: 03.11.25

Abstract: This article covers the socio-philosophical views of Allama Abdurauf Fitrat on marriage. The analyses of Fitrat's work "Family Management Procedures" on the concept of marriage, the procedure for concluding a marriage, its conditions, and the religious necessity were studied. The fact that the problems presented in the work were a hundred years ago and are still problems of today calls for improving the concepts of marriage. This means that it is necessary to study the conditions of concluding a marriage in more depth. Comparative analytical methodology plays a key role in studying Fitrat's socio-philosophical views on marriage. It was noted that concluding a marriage as a social phenomenon is a necessity for society. The conclusions and comparative analyses of 100 years ago were analyzed from a civilizational perspective.

FITRATNING NIKOH HAQIDAGI IJTIMOIIY-FALSAFIY QARASHLARI

Ozodaxon Kuvonbekovna Chuboyeva

Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

o.chuboeva@gmail.com

Namangan, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Maqola, alloma, Fitrat, nikoh falsafa, tartib, shart, e'tiqod, zarurat, oila, boshqarish, asar, taxlil, muammo, qiyos, metodologiya, hodisa, sifat, e'tibor, xulosa, tsivilizatsiya.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Alloma Abdurauf Fitratning nikoh borasidagi ijtimoiy falsafiy qarashlar yoritilgan. Nikoh tushunchasi, nikoh tuzish tartibi, shartlari, e'tiqodiy zarurati borasida Fitratning "Oila

yoki oila boshqarish tartiblari” asaridagi taxlillar o’rganildi. Asarda berilgan yuz yil avvalgi muammolar bugungi kunning ham muammosi ekanligi nikoh haqida tushunchalarni mukammallashtirishga chorlaydi. Nikoh tuzishning shartlarini chuqurroq o’rganishni zaruriyat ekanligini anglatadi. Firtatning nikoh borasidagi ijtimoiy-falsafiy qarashlarini organish borasida qiyosiy tahliliy metodologiya asosiy o’rin olgan. Nikoh tuzish ijtimoiy hodisa sifatida jamiyat uchun zaruriyat ekanligini e’tiborga olindi. 100 yil avvalgi hulosalar va qiyosiy tahlillarni tsivilizatsion tahlil etildi.

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ФИТРАТА НА БРАК

Озодахон Кувонбековна Чубоева

Преподаватель Наманганского государственного университета

E-mail: o.chuboeva@gmail.com

Наманган, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Статья, учёный, Фитрат, философия брака, порядок, состояние, вера, необходимость, семья, управление, работа, анализ, проблема, сравнение, методология, явление, качество, внимание, вывод, цивилизация.

Аннотация: В данной статье рассматриваются социально-философские взгляды алламы Абдурауфа Фитрата на брак. Проведен анализ труда Фитрата «Процедуры управления семьей» о понятии брака, порядке заключения брака, его условиях и религиозной необходимости. Тот факт, что проблемы, поднятые в труде столетней давности, актуальны и сегодня, требует совершенствования концепций брака. Это означает необходимость более глубокого изучения условий заключения брака. Сравнительно-аналитическая методология играет ключевую роль в изучении социально-философских взглядов Фитрата на брак. Отмечено, что заключение брака как социальное явление является необходимостью для общества. Выводы и сравнительный анализ 100-летней давности проанализированы с цивилизационной точки зрения.

Kirish. Jamiyat farovonlashmoqda, davlatchiligimiz yuksalmoqda. Inson huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, gender tengligini ta’minlash borasiga Konstitutsiyamiz asos bo’lib xizmat qilmoqda, qonunchiligimiz takomillashib bormoqda.

Davlatimiz rahbari tomonidan bu borada yetarli darajada tashabbus ko'rsatilmoqda. Prezidentimizning, "Aholi o'rtasida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish bilan bog'liq vazifalar ham o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda [1], - deb e'tirof etilgan.

Qonunchiligimizda milliy va umuminsoniy qadriyatlarqadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillar asosiy o'rin tutmoqda. Jumladan nikoh va oila munosabatlarida ham qonunlarimiz milliy qadriyatlarimizni o'zia mujassamlashtirgan.

Jamiyatning eng kichik yacheykasi hisoblangan oilaviy munosabatlarni shakllanturush, nikoh har birimizning e'tiqodimizni aks ettiruvchi amaldir. Nikoh bilan pok oilani shakllantirish va undagi tarbiyada an'analarni davomiyligini singdirish borasida tizimli ishlar yo'lga qo'yilishi qonunlarimizda mustahkamlangan.

Oila a'zolarining tarbiyasi mahalla, jamiyat davlat tartibiga, taraqqiyotiga ta'sir etadi. Tarbiya esa inson tafakkuri mahsuli bo'lib, o'z aks ta'siriga ega boladi. Tarbiya borasida taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan so'zlarini aslo unutmasligimiz lozim.

Lekin, so'nggi yillarda oilaviy munosabatlarning murtlashuvi, oilaviy nizolar, oilaviy ajralishlarning ko'pligi, xalqimizning qadim qadriyatlarini, o'rganishni, aynan allomalarning asarlari asosida, ularning fikrlariga tayangan xolda oilaviy munosabatlarni taxlil etish zaruriyatini paydo qilmoqda.

Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun Fitratning nikoh haqidagi qarashlarini o'rganish, nikoh shartlari bo'yicha jamiyatda tushuntirishlar olib boorish, oilalarni qayd etish muassasalari bilan hamkorlikda yosh oilalarni mustahkamlash choralarini belgilash tadqiqotning maqsadi etib belgilanmoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Fitratning "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" asari nikoh tushunchasi, nikoh tuzish tartibi, shartlari, e'tiqodiy zarurati borasida metodologik tavsiyalar bera oladigan asar hisoblanadi.

Fitratning nikoh borasidagi ijtimoiy- falsafiy qarashlarini o'rganish jarayonida dialektik jihatdan yondoshuv maqsadli hisoblanadi, nikoh munosabatiga kirishish shartlarini taxliliiy metodologiya asosida o'rganish oilani mustahkamligini ta'minlovchi vositadir. Fitrat davri va xozirgi sivilizatsion jarayonni, asar yozilgan davrdagi davlatlarda oilaning, elning ijtimoiy jihatlarini qiyosiy va ctatistik tahlillar asosida o'rganish hamda hulosalash nikoh, oila, tarbiya borasidagi, jamiyatni mustahkamligini ta'minlash borasidagi asosiy yondoshuvlarni belgilaydi

Taxlil va natijalar. Jamiyatni barqarorligi nikoh va oilaning mustaxkamligiga bog'liq xolatdir. Jamiyat a'zolari nikoh va oila munosabatlarini mustaxkamlash uchun jiddiy tarzda xarakat qilishari zarur. Bu xarakatlar ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash, jamiyatning moddiy

ta'minotini halol tarzda yuksaltirish, dunyoviy texnologiyalarni o'zlashtirish, ta'lim olish, turli marosimlarda milliy an'analarimiz nuqtai-nazaridan yondoshish, barcha sohalarda insoniylikning tub mantiqiy jihatlarini o'ylab xarakat qilishni, faoliyat olib borishni talab etadi.

Shu jihatdan, ustoz alloma Fitratning, -“Qaysi millatning umumiy sa'y harakati va amali ko'p bo'lsa, kuch-qudrati va izzati ham shuncha salmoqli va buyuk bo'ladi”[2], -degan iborasi o'rinlidir.

Demak, har bir yutug'imiz ijobiy xarakatlarimiz natijasidir.

Shuningdek, Fitratning “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarini o'rganish jarayonida nikoh, oila, oilani mustahkamlash jarayonidagi sa'y-xarakatlar borasidagi fikrlarni hozirgi zamon nuqtai – nazaridan taxlil etish maqsadga muvofiqdir.

Lekin, nikoh munosabatlaridagi qadriyatlar, oilalar mustahkamligi va nasllar davomiyligi muammosi olimlarni tashvishlantirmoqda, bu holatni o'tgan asrda Pol Demar oldindan bashorat qilgan. Ayniqsa demokratiyaning noto'g'ri talqin etilishi, insonlarning erkin yashashi tushunchasini axloqsizlik sifatida qabul qilinishi Yevropadagi ayrim davlatlarda bir xil jinslilar nikohga bolishiga qonuniy asos yaratdi. Bu xolat butun insoniyat uchun xavf manbasi bo'lib hisoblanadi.

Bu holat har qanday rivojlangan jamiyatda- avvalo axloqsizlik vujudga keltiradi;

-axoli ko'payishiga salbiy ta'sir etadi;

-ma'naviy jixatdan insoniyat tanazzulga yuz tutadi.

Fitrat “Oila yoki oila boshqarish tartiblari” asarida nikoh borasida fikr bildirar ekan, «... ya'ni Alloh taolo qodirdir, siz erkaklarni bir jinsdan yaratdi va ayollarni ham shunday jinsdan xalq qildi, toki erkak ayol bilan birga tinch bo'lsinlar». Darhaqiqat, e'tiqodli insonlar oilani nikoh bilan qursalar, taraflarning rozi rizoligi imon asosida olinsagina tinch yashay oladi.

Abdulloh ibn Mas'ud[3] rivoyat qiladi: «Nabiy (s.a.v.) marhamat qildilar: «Ey yoshlar, har birlaring nikohga kuchlaringiz yetsa uylaninglar, zero uylanish erkakni fahsh ishlardan saqlaydi va kimni nikohga kuchi yetmasa, u ro'za tutmog'i darkor, chunki ro'za shahvatni fahshga yaqinlashtirmaydi».

Nikoh oianing pokiza tarzda shakllanish omili hisoblanadi. Qoida bo'yicha nikohda erkak taraf taklifi bilan oila shakllanishi uchun o'tkasiladigan va diniy normalarimizda o'z asosini topgan tadbirlar majmuasi hisoblanadi. Shuning uchun Alloxning rasuli Muxammad (sav) sunnati va axoli o'rtasida qabul qilingan meyorga asosan uylanish uchun taklif ko'p xolatda erkak tarafidan amalga oshiriladi.

Olamning eng buyuk oqillaridan hazrati Payg'ambar uylanishni sunnat deb bilib, bizni shunga tashviq va targ'ib etganlar. Said Abu Hilol (r.a.) rivoyat qilishlaricha: «Nabiy (s.a.v.): «Uylaninglar va o'z nufuzlaringizni ziyoda qilinglarkim, qiyomat kun men sizlarning ko'pligingiz bilan faxrlanaman», — deganlar. Ayozi ibn G'animdan: «Payg'ambar (s.a.v.) dedilar:

«Tug'maydigan qari ayollarga uylanmang. Qiyomat kuni men boshqa ummatlarga nisbatan sizlarning ko'pligingiz bilan faxr qilaman»[4].

Fitrat tomonidan aynan uylanish nikohning pokligi sifatida talqin qilinar ekan, uylanishning bir necha jihatlariga e'tibor qaratganlar.

Birinchidan, insonda tabiat ato etgan xis-tuyg'u bor. Bu tuyg'u insonga mas'uiyat yuklaydigan kuch-quvvatni nasllar davomiyligi uchun sarflashdir.

Ibrat domla, "hazrati hakimi Qodir erkag-u ayol mijoziga shahvatni qo'shib bergan. Ular shahvat taqozosi bilan birga bo'lishni istab uylanadilar. Oqibatda farzand sohibi bo'ladilar. Ana shunday sabablarga ko'ra, bashariyat nasli Iloh irodasi bilan oxiratgacha boqiy qoladi"- deb yozganlar.

Endi oila qurmay yurgan insonlar esa, o'z xissiyotlari ortidan ko'plab gunoh ishlarga, axloqsizlikka qo'l urishi mumkin.

Fitrat o'z qarashlarida, -"Uylanmaydigan odam ham jinsiy aloqa uchun berilgan kuch-quwatidan foydalanmasa yoki Lut qavmining amalini qilsa[5] nafsini o'zi qondirsa, bilib qo'ysinki, Alloh qonuniga xiyonat qilibdi.,

Fitrat har bir nikoh borasidagi fikrlariga xadislarni asos qilib keltirgan. Abu Hurayra (r.a.)dan[6]: «Nabiy (s.a.v.) dedilar: «Sizlarning eng yomonlaringiz xotin olmagan kishidir».

Ikkinchidan, insonda tabiat ato etgan yana bir xis-tuyg'u, salomatlik uchun shart bo'lgan, tinchlik bermaydigan shaxvat tuyg'usidir

Fitrat ta'kidlaganidek, hazrati ha kimi Qodir uylanish mehnatidan qochib izdivoj ini tark etmasliklari uchun odamlarga shahvatni berib, ularning mijozlariga uni singdirgan, toki shahvat talabi bilan ular bir-birlarini xohlab uylansinlar. Majburan uylanmaganlar, albatta, shahvat talablarini daf qilolmay quyidagi uchta yomon amalga giriftor bo'lishlari mumkin: zino, (Lut qavmi amali) shahvatini o'z-o'zi qondirishidir. Bu qilmishlar ortidan albatta axloqsizlik, jinoyat va sog'liq uchun zararli oqibatlar sodir etiladi.

Uchinchidan, har qanday qavm va millat qayerda bo'lmasin jonu -dili bilan saodat talab bo'ladilar. Bunga hech shak-shubha yo'qdir. Ular doim shon- shavkatlari, e'tibor va izzatlarining ziyoda bo'lishini orzu qiladilar, kecha-yu kunduz shu maqsad sari intiladilar. Albatta, biz musulmonlarda ham shun day bo'lishi shart. Xususan, biz musulmonlarga Xudo buyuradi: «Alloh va Rasuli akram (s.a.v.)dan keyin izzatga loyiq faqat mo'minlar bo'ladilar».

Insoniyat tafakkuri, madaniyati, qadriyati, bir-biriga bo'lgan munosabati, ish faoliyati, kasblarga bo'lgan munosabati va barcha hususiyatlari o'tgan asrga qaraganda tubdan o'zgargan.

Shu bilan birga jamiyatdagi yurish-turish, marosimlar, tadbirlar, umumxarakatlar, jamiyat intilishlari mazmuni ham turli o'zgarishlarga uchradi.

Jamiyatdagi siyosiy tashkilot sifatida davlat o'z xarakterini yuksaltirgan, qaysi ma'nodaki, shu insonlar xoxish-irodasi ifodasi sifatida ham ijobiy, ham salbiy tarzda yuksaltirgan.

Fitrat o'zi yashagan davrda nikoh va oilani mustahkamlash haqidagi qarashlarida 100 yil avvalgi xayotiy xolatni taxlil etgan Nikoh borasida islomiylik nuqtai-nazardan berilgan qoidalarni, tartiblarni, xalqning intilishlari borasidagi tushunchalarni, xatto davlat aholisining son jihatdan ko'payishi borasigai statistik ma'lumotlarni qiyosiy tahlil qilingan.

Ushbu ma'lumotlarda, belgiyaliklar va inglizlarni taxlil etilib, har ikkala millat a'zolari ishchan va harakatchanligi qiyoslangan.

Fitratning muhokamasida ingliz millati Belgiya xalqidan yuz barobar ko'proq kuch va shavkat-u e'tiborga egaligi, qizig'i shundaki, ingliz va belgiyalik millatlari o'rtasida ilm -u amal va sa'y-harakatda farq yo'qligi faqat, shavkat-u shon va izzat bobida farqni har ikkala millatning umumiy sonidan topsa bo'lishi deb ko'rsatilgan.

Fitratning asaridan keltirib o'tamiz: -“ingliz millatining aholisi 44 mln. va belgiyaliklar esa 7,5 mln. ga yetadi. Shuning uchun ham ingliz millatining umumiy sa'y-harakati va amali belgiyaliklarning sa'y-harakatlaridan bir necha marotaba unumlidir. Ingliz millatining kuchi va izzat-e'tibori ham ana shu sa'y va amallarning natijasidir. Shundan kelib chiqib Ovro'pa hukmdorlari o'z millatlarining sonini ko'paytirishga harakat qiladilar. Ovro'pa olimi o'z xalqining nufuziga putur yetsa: «Ey! Mamlakatimizning sharafi va e'tibori qolmayapti. Millatimiz nest-nobud bo'ladi. Sharafimizni, vatan va millatimizni himoya qilish uchun arzanda farzand yetishtiringlar», — deya dod soladi. Fransiyaning Pol Demar[7] degan olimi fransuz aholisining oxirgi yuz yil davomida sonini tadqiq qilib hisoblaydi. Uning xulosasiga ko'ra, faqat oxirgi ellik yil mobaynida fransuz millatining soni ingliz va olmon aholisidan oshmabdi. Pol Demar yozadiki, XIX asrning boshlarida, ya'ni 1810- yili Fransiya aholisi 28 mln., Angliya aholisi 10 mln., Olmon aholisining soni 18 mln. edi. Bugunga kelib Olmon aholisi 59 mln.ga, Angliya aholisi 62 mln.ga yetibdi, ammo Fransiya aholisi 39 mln.ga yetibdi, xolos. Ya'ni, 80 yoki 90 yil davomida olmonliklar 41 mln., inglizlar 52 mln., biroq Fransiya aholisi 11 mln. oshibdi. Pol Demar bu hisobni ko'rib: «Agar ahvol shunday davom etaversa, nafaqat biz vatan muhofazasidan, balki hayot orzusidan ham mahrum bo'lamiz, — deya qayg'uradi.

— Bugun biz fransuzlarning mamlakati va millati jar labiga kelib qolgan. Bu chuqurga tushib ketishimizga oz qolibdi. Lekin hali ham kech emas, millat va vatanni bu halokatdan qutqarish uchun himmatimiz va sa'y-harakatimiz kerak». Ovro'pa olimlari millatlarining kamayishidan shu darajada qo'rqadilar[8].

Yuqorida Fitrat yashagan davrdan 100 yil avvalgi davr mobaynidagi evropa davlatlarida axoli soni o'sish darajasi taxlil etilgan. Fitrat axoli sonini o'sishini oilani taraqqiyoti, jamiyat rivoji va davlat yuksalishi omili asosi sifatida belgilagan.

Fitrat yashagan davrdan 100 yil o'tdi, xozirgi kun "google.com" statistikasida Angliyaning 56.5 million[9], Belgiya aholisi - 11 687 008 kishi (2023), Fransiya 68 011 000 kishi istiqomat qiladi.

Bularning bir necha mln nafari xorijliklar bo'lishi statistik ma'lumotlarda ko'rinadi. Masalan, Fransiya 3,5 mln. muhojir (jazoir, portugal, italyan, ispan, arman va boshqalar) bor. 4 mln. musulmon istiqomat qiladi[10]. Belgiya 1 mln.ga yaqin ajnabiylar – italyanlar, ispanlar, fransuzlar, greklar, gollandlar, marokashliklar, turklar va boshqalarlar ham bor[11].

Angliyada axoli o'sish darajasi qisqargan va axolining 14 yoshgacha bolganlari: 17,7 %, 15—64 yoshlilar soni: 63,7 %;

65 yosh va kattalar soni: 18,7 % (2020 yil ma'lumoti) [12]

	1 9 asr	20 asr	farq q	21 asr	farq	Chet elliklar
Fransiya	28 mln	39 mln	+1 1 mln	68mln	+29ml n	7.5 mln
Angliya	1 0 mln	62 mln	+5 2 mln	56.5	-4.5 mln	
Germaniya	1 8 mln.	59 mln.	+4 1 mln.,	84 ml n	+25ml n	7,2 ml n
Belgiya		7.5ml n		11.5m ln	+4.5 mln	1mln

200 yillik axoli soni o'zgarishlarini qiyosiy o'rganish jarayoni shuni ko'rsatmoqdaki, rivojlangan davlatlarning (ko'chib kelgan turli millatlar hisobiga) aholi soni o'zgarishi davlat va jamiyat rivojlanishi taraqqiyotga ta'siri tashqi ko'rinish jihatdan sezilarli emasdek ko'rinsada, axoli boshqa xalqlarning yevropaga borib yashashi hisobiga belgilanmoqda.

Taxlil va natijalar. Fitrat oila borasida yozgan risolasida imon-e'tiqodli insonlar uchun ma'iflatli ko'rsatma berib o'tgan. Oila er-xotin va farzandlardan iborat. Boshqacha qilib aytganda, oila bir shaxs boshchiligida bir uyda yashovchilardir. Shu ta'riflardan ma'lum bo'ladiki, oila ham bir necha odamlardan iborat bo'lgan jamoa ekan. Ularning har biri insonga xos narsaga, ya'ni o'z manfaatlariga asir bo'ladi. Biri ikkinchisining huquqini tasarruf qilib bosib olishi mumkin. Ana shu tajovuz oldini olish uchun oila a'zolari o'rtasida ham bir qonun lozim. O'tgan olimlar-u hakimlar shu masalada sa'y-harakat qilib qonunlar ishlab chiqqanlarkim ularning umumiy hay'atini «manzil tadbiri» (ro'zg'or tebratish tadbiri) deb ataydilar.

Prezidentimiz tomonidan milliy qadriyatlarimizdagi har bir o'zgarishga fikr bildirilib, jamiyat kelajagi uchun yoshlarni munosib tarbiya topishi masalasiga alohida urg'u berib otilmoqda,- "Yana bir muhim jihat. Jamiyat hayotida dunyoviy va diniy omillar o'rtasidagi sog'lom muvozanatni to'liq ta'minlashga yordam beradigan, kuchli tarbiyaviy salohiyatga ega va xalqimiz ma'naviyatini asrlar mobaynida mustahkamlashga hizmat qilib kelgan umuminsoniy va

milliy qadriyatlar, azaliy an'ana va urf-odatlarining qadrsizlanishiga, deideologizatsiyaga yo'l qo'yish hollari uchramoqda. Dunyoqarashi keng, ma'nan barkamol insonni shakllantirishga hizmat qiladigan g'oyaviy tarbiya mexanizmining ta'siri kamaygani sezilmoqda[13].

Bu boradagi ta'sirlar nikoh va oila munosabatlariga ham tegishli ekanligini e'tiborga olib, bu borada tadqiqotlar olib borish, tegishli hulosalarni bildirish, paydo bo'layotgan qusurlarni yo'qotish uchun loyihalar ishlash, tajribalarni qo'llashni davr taqozo etmoqda.

Xulosa. Asarda oila mustahkam bo'lishi uchun aynan nikoh shartlari bajarilishini talab etilgan. Asarda oilani mustahkamlashda nikoh va tarbiya asosiy masala ekanligi yoritilgan.

Oilalarning tarbiyasi mahalla, jamiyat davlat tartibiga, taraqqiyotiga ta'sir etadi. Tarbiya esa inson tafakkuri mahsuli bo'lib, o'z aks ta'siriga ega boladi. Tarbiya borasida taniqli ma'rifatparvar Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot – yo halokat, yo saodat – yo falokat masalasidir" degan so'zlarini aslo unutmasligimiz lozim..

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: "Ўзбекистон" нашриёти, 2021. 284 б.
2. A. Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. Cholpon nomidagi NMIU, 2013.,-b12
3. A. Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. Cholpon nomidagi NMIU, 2013. -B. 12 (Abdulloh ibn Mas'ud - sahoba, 652-yili vafot etgan.)
4. A. Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. Cholpon nomidagi NMIU, 2013. -B. 12 (Abdulloh ibn Mas'ud - sahoba, 652-yili vafot etgan.)
5. Lut qavmining amali... Lut payg'ambar va qavmining tafsiloti Qur'onda keltirilgan. Lut alayhissalom hukm va ilm sohibi bo'lib, o'z qavmi tomonidan tan olinmagan payg'ambar edi. Lut qavmi bachchabozlik bilan shug'ullanganlar. Lut ularni bu amaldan qaytarmoqchi bo'lgandan, uni surgun qilmoqchi bo'ldilar. Alloh ularni shu gunohlari uchun yo'q qilgan. M u- fassal qarang: Qur'oni karim. A'rof surasi, 7 8-80-, 82-84-; Xud surasi, 70-73-. 82-84-; Hijr surasi, 57 — 77; Shuaro surasi, 160— 173; Va-z-zoriyot surasi, 33 —38-oyatlar va boshqalar.
6. Abu Hurayra raziyallohu anhu... To'liq ismi Abdurahmon ibn Sahr Azdi. Sahoba, 676-yilda 78 yoshida vafot etgan
7. Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2013. bet.-13. (Pol Demar — fransuz sotsiologi va iqtisodchisi)
8. Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. Toshkent: Cho'lpon nomidagi NMIU, 2013. bet.-14
9. <https://www.google.com>.
10. <https://uz.wikipedia.org/>
11. <https://uz.wikipedia.org/>

12. <https://ru.wikipedia.org/>

13. Мирзиёев Ш. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: “Ўзбекистон” нашриёти, 2021. 295 б.